

AMIR TEMUR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO VOHASI TOPONOMIKASIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Ziyodov Otabek

Qarshi davlat universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrası magistri

ANNOTATSIYA: Maqolada Amir Temur hukmronligi davrida Buxoro vohasi hududida mavjud bo‘lgan geografik nomlar toponimikasi borasidagi tadqiqotlar o‘rganilib, tarixiy tahlilga tortilgan. Vohadagi geografik joy nomlarining vujudga kelishi aynan Amir Temur nomi va davri bilan chambarchas bog‘liqligi tarixiy manbalar bilan dalillangan hamda xulosalangan.

KALIT SO‘ZLAR: Amir Temur, “Geografiya”, NYM, “ilm makoni”, “Temur ariq”, “jan”, “jon”, “kanal”, “suv ombori”, “suv hafzasi”.

Hozirgi vaqtda geografik yer-suv nomlari, ya’ni toponimlarni, ko‘p e’tibor berilmoqda. Har bir toponimda qandaydir ma’no-tarixiy insoniy ma’lumot yashiringan.

Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Geografik nomlar xilma xil tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsulidir, tahlil etadigan davrimiz ham Amir Temur hukmronligi davrida Buxoro vohasi va unga tutash hududlar toponomikasi va shu bilan birgalikda o‘sha davr toponomikasining bir turi bo‘lgan gidronimlarga ham to‘xtalib o‘tamiz.

Dastlab, yurtimizning qadimiy va navqiron shaharlaridan biri bo‘lmish, tarixning har bir davrida hamda Amir Temurning siyosiy maydonga kirib kelishida ham muhim

rol o‘ynagan. Buxoro shahrining toponimikasiga to‘xtalib o‘tsak. Buxoro nomi ilk bor yunon astronomi Klavdey Ptolomeyning “ Geografiya” asarida ham uchraydi¹.

Buxoro Xitoy manbalarida, ya’ni V asrga oid manbalarda NYMi shaklida uchraydi.

Bundan tashqari Buxoro etimologiyasi bir qancha tarixchilar, sayyohlar asarlarida har xil ta’rifda keltirilib o‘tadi. Masalan, akademik V.V. Bartold Balxda yoki Samarqanddagi kabi, Buxoroning yonginasida budda ibodatxonasi bo‘lgan deydi. Aksariyat olimlar Buxoro sanskritcha so‘zning turkcha-mug‘ulcha shakli deb hisoblaydilar². Muarrix hofiz tanish Buxoriyoning yozishicha “Buxoro” so‘zi – “buxor” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, otashparastlar tilida “ilm makoni” demakdir. Shunday qilib Buxoro toponimlarining etimologiyasi haqida har xil fikrlar mavjud³.

Buxoro vohasida Sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog‘liq sug‘orish inshootlari, kanallar va anhorlar mavjud bo‘lganligini bir qancha tarixiy adabiyotlar orqali ham tahlil etish mumkin, Buxoroning asosiy sug‘orish manbai, Zarafshon daryosi bo‘lib, ushbu daryo Temuriylar hukmronligi davrida Ko‘hak daryo deb atalgan. Ayniqsa, yoz mavsumida ekinlar suvga bo‘lgan talab ko‘paygani bois, Ko‘hak daryosining suvlari 3-4 oylab Buxorogacha yetib kelmagan⁴.

Ammo, Ko‘hak suvi seryog‘in yillarda kuchayib hatto Amudaryogacha ham yetib borganligi to‘g‘risida manbashunos olim Omonulla Bo‘riyev Hofizi Abru ma’lumotlariga tayanib fikr bildirib o‘tadi⁵.

Ma’lumki, dehqonchilikning asosiy tarmog‘i sug‘orma dehqonchilikni su’niy sug‘orish inshootlarsiz (kanal, anhor, ariq, damma va hakoza) tasavvur qilib bo‘lmaydi Buxoro vohasidacho‘l va dashtlarni ekin maydoniga aylantiruvchi, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishda Amir Temur kanallar chiqarishga alohida e’tibor

¹ Klavdiy Ptolomey Geografiya (отрывки) // Деревний восток в античной и ране христианской традиции. М:2007. С 212

² Suyun Qolayev. O‘zbekiston viloyatlari toponimikasi, T:2003 B-53

³ Hofiz Tanish Buxoriy Abdullanoma T: 1966 C-70

⁴ Zahridin Muhammad Bobur Boburnoma T.1990. B-368

⁵ Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo (tarixiy

qaratganligini keyingi davrda tadqiqotlar ham o'z ma'lumotlarida Amir Temur Sirdaryodan Buxoroga kanal qazdirganligi haqida aytib o'tgan¹.

Yosh tarixchi olim J. Ko'charov tadqiqotlarida Kogondan janubiy-sharqiy yo'nalishda chiqarilgan kanal xalq orasida "Temur ariq" deb saqlanib qolganligini rus tadqiqotchisi P.F.Sitnyakovskiyning rus jug'rofiya jamiyatiga yo'llagan hisobotlari asosida keltirib o'tadi². Bundan tashqari Buxoro vohasida toponimikani gidronim turiga kiruvchi bir qancha joy nomlarini sanab o'tish mumkin.

Buxoro shahrini o'rta asrlardan beri suv bilan ta'minlaydigan ariqlardan biri Shohro'z, to'g'rirog'i Shohro'z kanalini aytish mumkin, ya'ni bosh kanal degan ma'noni anglatadi.

Qorako'l hududidagi Surxi qudug'i, romitik tumanida Yig'irchi qudug'i G'ijduvon tumanidagi Oqquduq, peshki tumanida, Zarqum, aslida Zeri qum, ya'ni qum ostidan kovlangan quduq ma'nosini anglatadi.

Buxoro hududidan oqib o'tuvchi ya'ni bir ariqni nomi yana bir ariqni nomi Zar deb atashadi. Buxoroda "kom" termini "ariq" degan mazmunda keladi, Podsho Rossiyasining zobiti N.F. Stnyakovskiy XX asr boshlarida Buxorodagi Komi zar ariqlarini Katta zar va kichik zar deb tarjima qilganda akademik V.V. Bartold bunga javoban mahalliy xalq "kom" deganda "jo'y" ga nisbatan kattaroq ariq tushuniladi deb yozib o'tgan. Amir Temur davriga tegishli yana bir qadimiy kanal Shovrikon yerlarini sug'organ Jilvon nomi bilan ataluvchi kanaldir.

Mansab va martabalar orasida Jilvon degan amal bo'lgan, ya'ni bu nomidan ham bilinib turibdiki o'g'ri, yo'lto'sarlarni jilovlash, tutib turish, yo'ldan qaytarish kabi mazmun kasb etgan. Shofirkon tumanida hozirda ham jilvon degan qishloq bor.

O'rta asrlarga xos gidronimlardan yana biri "jan", "jon" deb ataladi, bu esa "kanal", "suv ombori", "suv hafzasi" M. Markvart bu so'zni sug'dcha desa, rus olimi A.K. Borovkov xorazmcha deydi. Zarafshon vodiysida Somjan, Ro'ujan, Burjan kabi toponimlar mavjud³.

¹ Sobolev L.N О постепенном движении песков кюг Бухаре. //Туркестанский сборник. Т-83 С-36 а-38

² J.Ko'charov Amir Temur va Temuriylarhukmronligi davrida Buxoro vohasidagi siyosiy iqtisodiy va madaniy hayot. Qarshi 2022-yil, Диссертация

³ Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponomikasi T.2005. B-57

Xulosa o'rnida keltirib o'tish joizki, Amir Temur hukmronligi davrida Buxoro vohasida toponimlar bir-biridan tarixiylik nuqtai nazaridan ham, leksik va fonetik nuqtai nazardan ham farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khujamuratovna, J. I. (2022). Contributions of Irrigators Yekaterina Isaakovna Friesen and Somova Nina Nikolaevna to the Development of Kashkadarya Water Management. *Miasto Przyszłości*, 30, 18-20.
2. Khujamuratovna, J. I. (2022). MELIORATIVE CONDITION OF LAND IN THE OASIS OF KASHKADARYA IN THE 50S OF THE 20TH CENTURY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 118-122.
3. Jabborova, I. X. (2021). IRRIGATION STRUCTURES IN KASHKADARYO OASIS. In *НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ* (pp. 15-19).
4. ЖАББОРОВА, И. Х. (2021). ЎЗБЕКИСТОН СУҒОРИШ ТАРИХИНИНГ ЗАХМАТКАШ ТАДҚИҚОТЧИСИ ВА ЗУККО МЕЪМОРИ. In *Uzbek Conference Publishing Hub* (Vol. 1, No. 01, pp. 54-58).
5. Хужамуротовна, J. I. (2020). Study of irrigation history of the kashkadarya oasis. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 3047-3051.